

## AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING JAMOADAGI FAOLIYATI

*Toshkent amaliy fanlar Unversiteti  
“Psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi  
Ilmiy rahbar: Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna  
Pedagogika fakulteti Psixologiya yo’nalishi  
2-bosqich talabasi: Yermekova Indira*

**Annotatsiya;** Psixologik xizmat faoliyati yosh va pedagogik psixologiya, psixokorreksiya, psixologik maslahat sohasida umumiy psixologik va maxsus psixologik bilimlar olgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Psixologik xizmatga jalb qilingan pedagoglar bu mutaxassislikni olish uchun maxsus qayta tayyorgarlikdan o’tishlari lozim. Amaliyot shuni ko’rsatadiki, odatda o’qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo’ladilar. Hamma gap psixolog o’zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o’qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o’ynaydi.

**Kalit so’zlar:** psixolog, amaliyot, jamiyat, kasb, professional, etika, estetika, psixologik xizmat, korreksiya.

XX asr bo’sag’asida psixologiya fani va uning ilg’or vakillari o’zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko’rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo’ldilar. Shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammosiga psixologiyaning amaliy tatbiqiy yo’nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida ko’pgina olimlar o’z fikrmulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Maslahat berish psixologik xizmatning asosiy yo’nalishlaridan biridir. Lekin psixologik maslahat o’zi nimaligi haqida yagona tushuncha yo’q. Kollejlardagi yoki akademik litseylardagi psixolog ishi bir-biridan tubdan farq qiladi. Psixolog aniq o’quv muassasasidagi o’qituvchilar va o’quvchilar orasidagi munosabatning ijobiy va salbiy tomonlari rivojlanadigan ijtimoiy muhitning ichida bo’ladi. U har bir o’quvchi yoki o’qituvchining o’zinigina emas, shaxslararo munosabatning murakkab sistemasini ham ko’radi, boshqa ish turlari bilan birgalikda vaziyatni hal qiladi. 1. Bolalar, o’qituvchilar, talabalar ta’lim va tarbiyasi bilan shug’ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma’muriyat, direktor, rektor, mudir, o’qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq, yaqqol maslahatlar berish.

2. Ta’lim, taraqqiyot, tarbiya, kasb tanlash va turmush qurish, o’zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga yetmaganlar munosabati,

masalan, dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruhiy, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish.

3. Ma'muriyatga, bolalar, o`quvchilar, talabalarga (yotoqxonada, klublarda, kutubxonalarda) qiziqtiruvchi masalalar bo`yicha bolalar, o`quvchilar, talabalarning psixik o`shishi xususiyatlariga oid ma'lumot berishi, o`g`il va qizlarni asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish, tashkilotlarning g`amxo`rlik va vasiylik to`g`risidagi qabul qilgan qarorlariga munosabati, shaxs taqdirini hal qilishda qatnashishi va maslahatli fikr berishi lozim.

4. Ota-onalarga bolaning psixik rivojlanishi xususiyatlarini shaxs sifatida shakllanishi, o`zaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarning yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo`yicha ilmiy-amaliy maslahatlar beradi.

5. Yangi tipdagi maktablarga o`rta-maxsus va kasb-hunar kolleji o`quvchilari, akademik litsey talabalariga ularning imkoniyati, istiqboli to`g`risida ilmiy-amaliy xususiyatga molik konsultativ ishlar olib borish: yoshlarni saralash, tanlash, kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash, tanlov komissiyasida maslahatchi sifatida ishtirok etish.

Psixologik xizmatning asosiy mazmuni – sog`lom shaxsning o`shishini ta`minlash shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish va kasb tanlash muammosidir. Birinchi bo`lib 1975 yilda Estoniyada psixologik xizmat atshkil etildi. Uning rahbari X.I.Liyets, Yu.L.Serd bo`lib tarbiyasi qiyin o`smirlar uchun ish olib bordilar. Rossiyada I.V.Dubrovina psixologik xizmatning rivojlanishiga juda katta hissa qo`shgan. Har bir davlatning ijtimoiy taraqqiyoti o`sha davlat hududida yashovchi fuqarolarning ijodiy o`shishi va axloqiy potensialiga bog`liq bo`ladi. Jumladan, bu kasb AQShda o`tgan XX asrning 1960 yillarida paydo bo`lib hozirgi zamon psixologiyasidagi asosiy tarmoq hisoblanadi. AQShda 1980 yillarda maktab psixologlarining Milliy assotsiyasi tuzilgan edi. AQShda maktab psixologining markaziy vazifalarida biri o`quvchilarning aqliy rivojlanish sifatini test savollari orqali baholash hisoblanadi. Psixolog B.L.Vulfson Fransiyaning hozirgi vaqtdagi pedagogik muammolarini taxlil qilib yaqin vaqtlargacha test uslubi AQSH va Agiliyadagidek keng tarqalmagan degan fikrni aytadi . Fransiya maktablarida bolaning aqliy faoliyatlari va qobiliyatlarini testlar orqali aniqlash o`tgan asrning 70-yillari boshidan boshlaganligi ma`lum. Lekin hozirgi vaqtda odamning faqatgina aqliy faoliyati bilan emas balki shaxs bo`lib shakllanishi jarayonida uni har tamonlama baholashga to`g`ri keladi.

Ta`kidlash lozimki, ushbu treninglarni kuzatgan kishi amaliyotchi psixolog faoliyati naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini yaqqol namoyon etadi. Deylik bir sinfdan 30 nafar o`quvchi yoki bir mehnat jamoasida 70 nafar, hatto undan ham ortiq o`qituvchi faoliyat ko`rsatadi. Bu amaliyotchi psixolog zimmasiga oilaviy sharoiti, muhiti, kelib chiqishi hattoki avlodlar davomiyligiga ko`ra o`ttiz, yetmish va undan

ortiq toifa va xarakterga ega bo'lgan kishilarni bir maqsad yo'lida birlashtira olishdek muhim vazifa yuklatilgan ekanligini ko'rsatadi. Bu maqsadga erishish esa oson emas. Agar amaliyotchi o'z vazifasini o'rtacha 50 foiz a'lo darajada ado eta bilsa, bu butun jamoada katta burilish yasaydi, ya'ni bu yerda sog'lom muhit shakllanadi. Muvaffaqiyatlar kaliti esa avvalo sog'lom muhit yarata bilishdadir. Kishi ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish va ko'zlangan maqsadga erishishda noan'anaviy yondashuvning samarali kechishi esa albatta amaliyotchi psixolog mahorati, yangiliklar yarata bilishi, eng muhimi, o'ziga nisbatan ishonch uyg'ota bilishiga bog'liq

O'zbekistonda psixologik xizmatning tadbiq etilishi. 1989-yilda O'zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sabab Nizomiy nomli TDPUDA amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi. O'zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida E.G'oziyev, M.G.Davletshen, G.B.Shoumarov, V. M. Karimova, Sh. R.Baratov, E.H.Sattarov, F.S.Ismagilova, Z.T.Nizamova, H.S.Safoyev, F.L.Xaydarov, B.R.Qodirov, S.X.Jalilova, va boshqalar fan rivojida o'z hissasini qo'shgan va hozirga qadar o'z izlanishlarini davom ettirmoqda.

Amaliyotchi psixologlar ta'lim tarbiya maskanida psixologik yordam berish bilan birga tashxis qo'yish, maslahat berish, korreksiyalash kabi asosiy vazifalarni bajarishadi. Joriy yilning oktabr oyida "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish" hududiy markazida tinglovchi sifatida malaka oshirish kursi mashg'ulotlarida ishtirok etdik. 28-oktabr kuni pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida o'qituvchilari hamda maktab amaliyotchi psixologlari bilan hamkorlikda maktab amaliyotchi psixologlarining ish faoliyatini rivojlantirish maqsadida hududiy markazning boshlang'ich ta'lim yo'nalishi tinglovchilari uchun noan'anaviy yondashuv asosida "Diqqatni jamlash daqiqasi", "Fil, palma, halades" mashqi, "Impuls jo'natish", "Olma-olcha", "O'zingni top", "Qo'lqop va saqich" estafetasi, "Baxt ulashish" kabi bir qator psixologik treninglar tashkil etildi.

Psixologik xizmatning asosiy vazifasi tadqiqot ishlari, amaliy ishlar va tashfikat ishlaridan iborat 3 ta vazifadan tashkil topadi. Ilmiy tadqiqot vazifalari -ukuvchilar shaxsini shakllantirishning muxim muammolarini, ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslarini, ukuvchilar bilan ukituvchilar, maktab psixologlari bilan ukuvchilar va ukituvchilar urtasidagi uzaro ta'sirini xamda maktab psixologining etikasini uz ichiga oladi. Amaliy vazifalar-psixologik tadqiqotning natijalarini amalda kullab bolalarning maktab ta'limiga tayyorligini aniklash, ukuvchilarning ukish faoliyatini osonlashtirish, ukuvchi shaxsini xar tomonlama kamol toptirish, ukuvchilarning kobiliyat va mayllarini aniklash va rivojlantirish, talabalar bilan kasb-xunarga oid suxbat, maslaxat ishlarini olib borish, tarbiyasi kiyin bolalar bilan turli xildagi ish olib borish kabi asosiy vazifalarni xal kilishdan iboratdir. Tashfikat ishlari- psixologik bilimlarni, psixologik ta'limni tashfik kilib ukuvchilarning psixologik bilimlarini oshirish, ota onalar uchun seminarlar, ma'ruzalar va suxbatlar uyushtirish, anjuman telekursatuv va radioda

chikish, yakkama yakka maslaxatlar tashkil etish, mulokot treninglarini uyushtirishdan iboratdir.

**Xulosa:** Psixolog o`quvchilar xarakterida mavjud bo`lgan yutuqlarni rivojlantirish va kamchiliklarni tuzatish, o`z xatti-harakatlarini kuzatish, tahlil qilish, baholash, o`zining kayfiyat va xulq atvorini boshqarish, ko`nikma va malakalarni rivojlantirish haqida tavsiyalar beradi. Umum o`rta ta`lim maktablarida ish olib borayotgan amaliyotchi psixologlar o`z faoliyati davomida ta`lim muassasining ijtimoiy muhitini muvofiqlashtirishni ta`minlaydi, va ijtimoiy moslashmaslik ularning zo`riqishlarini yuz berishini oldini olish uchun psixologik xizmatning o`rni beqiyos. Psixologik xizmat faoliyati o`quvchilar aqliy faoliyat taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarini diagnostika qilishga, ta`lim-tarbiyasidagi buzilishlarning psixologik sabablarni aniqlashgagina qaratilmasdan, balki bunday buzilishlarni yo`qotish va oldini olishga qaratiladi. Bunday psixologning aniqlagan va to`plagan ma`lumotlari o`quvchilarni korreksiya qilishda faol ishtirok etish zarurligi kelib chiqadi. Amaliyotchi psixologga o`quvchilar ham kattalar va tengdoshlari bilan o`zaro munosabatni yaxshilash masalalari, o`z-o`zini tarbiyalash, kasbiy va shaxsiy o`z o`zini bilish, aqliy mehnat va xulq-atvor madaniyati va boshqa muammolar bo`yicha murojaat qiladilar.

Psixolog o`quvchilar bilan bevosita aloqada ularda vujudga kelgan muammolarni hal qiladilar. Bu to`g`ridan-to`g`ri maslahat berish deb ataladi. Ba'zan o`quvchilarga va ota-onalarga o`qituvchilarning u yoki bu muammolari bo`yicha maslahat beradi, bu bivosita maslahat berishdir, bunda ma'lum qoidalarga amal qilishga to`g`ri keladi. Maslahat berish markazida har doim psixolog va maslahat berilayotgan shaxsning o`zaro ta'sir jarayoni, ular orasida ishonchli o`zaro munosabatni o`rnatish yotadi. Bunda psixolog – maslahat beruvchi; o`qituvchi, otaona – maslahat beriluvchi; o`quvchi – mijoz roliga bo`ladi.

Maslahat berish ishini quyidagicha sxematik tasvirlash mumkin.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Boymurodov, N. (2008). Amaliy psixologiya. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
3. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41–46.
4. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69

5. Jabbor Usarov. (2019, June). Using Teaching Methods for Development Pupil Competencies. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(1), 272- 274.
6. Jabbor Eshbekovich Usarov. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. *Theoretical & Applied Science*, 53(9), 79-82.
7. Mukhamedov Gafurdjan Isroilovich, & Usarov Djabbar Eshbekovich. (2020). Technologies for the Development of Competencies in Physics in General Secondary Education using Multimedia Resources. *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*, 9(3), 2677-2684.
8. Usarov Djabbar Eshkulovich, & Suyarov Kusharbay Tashbaevich. (2020). Developing Pupils' Learning and Research Skills on the Basis of Physical Experiments. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02), 1337-1346.
9. Maratov Temur Gayrat ugli (2019) Scientific theoretical problems of perfect human category in the psychology. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. 7(8). 16-22.
10. НЖ Эшнаев, ТФ Маратов, Г Мирзарахимова. (2020). Ўзбек миллий кино санъати ва маданиятида психопрофилактик хизмат тизимини жорий этиш масалалари. *Oriental Art and Culture* 03. 156-165.
11. Turakulov Buri Norboevich. (2020). Analysis of psychological theory of emotional intelligence. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*. 8(3). 99- 104.
12. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Kodirov Ikrom Davronovich. (2020) "PROBLEMS OF FORMATION OF LEARNING MOTIVES IN PUPILS", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 5, no. 8, p. 6,
13. Usarov Jabbor Eshbekovich, Eshnayev Nortoji Jumayevich, and Haydarova Surayyo Abdusalomovna. . (2020) "DEFECTS IN SCIENTIFIC RESEARCH OF THE PROBLEMS OF SPIRITUAL AND MORAL CRISIS AND ITS SOLUTION", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 5, no. 8, p. 6.